# Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi)
## Geografiya fani 10-sinf

21.10.2024

***1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi***

1. Tropik Afrikada quyidagi qaysi primitiv dinga e'tiqod qiluvchilar koʻp yashaydi?
A) totemizm B) buddizm C) feteshizm D) shamanizm

2. Quyidagi qaysi shahar Andijon viloyatining Qirgʻizistonga chegara qismida joylashmagan?
A) Boʻz sh. B) Qorasuv sh. C) Xonobod sh. D) Paxtaobod sh.

3. Amudaryo va Ili daryolarining deltalarida qanday tuproq turi tarqalgan?
A) sur-qoʻngʻir tuproq B) boʻz tuproq C) taqirli tuproq D) oʻtloq-allyuvial tuproq

4. Shimoliy Afrikadagi qaysi mamlakatlar neft-gaz zaxiralariga koʻra dunyoda yetakchi oʻrinda turadi?
A) Marokash va Misr B) Jazoir va Liviya C) Chad va Jazoir D) Misr va Tunis

5. Quruqlikda tabiat zonalarining hosil boʻlishi quyidagilarning qaysi biriga bogʻliq emas?
A) Relyefga B) Havo haroratiga C) Albedoga D) Yogʻin miqdoriga

6. Mamlakatimizdagi mehnatda band aholining 11%i quyidagi qaysi sohada faoliyat yuritadi?
A) Qurilishda B) Savdoda C) Sanoatda D) Sogʻliqni saqlashda

7. Qoratov togʻlari quyidagi qaysi tabiiy geografik okrugning shimolida joylashgan?
A) Qizilqum B) Qashqadaryo C) Oʻrta Zarafshon D) Mirzachoʻl

8. Gʻalaba choʻqqisi qaysi mamlakatlar chegarasida joylashgan?
A) Xitoy va Qirgʻiziston
B) Mongoliya va Xitoy
C) Tojikiston va Qirgʻiziston D) Qozogʻiston va Xitoy

9. Aholi tabiiy koʻpayishining manfiy holati nima deb ataladi?
A) Demografik portlash B) Mexanik koʻpayish C) Urbanizatsiya D) Depopulyatsiya

10. Quyidagi qaysi geografik obyekt Oyboʻgʻir doʻngligidan shimolda joylashgan?
A) Dovutkoʻl B) Borsakelmas C) Qoplonqir D) Asakaovdon

***2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi***

11. Parrandalar soniga koʻra respublikamizda eng soʻnggi oʻrinlarda turuvchi viloyatlarni aniqlang.
A) Jizzax, Namangan, Navoiy
B) Samarqand, Buxoro, Surxondaryo
C) Toshkent, Samarqand, Andijon
D) Sirdaryo, Navoiy, Jizzax

12. Sharqiy Yevropa platformasi bilan yosh Turon platformasi chegarasi Oʻrta Osiyoning qaysi qismiga toʻgʻri keladi?
A) shimoliga
B) shimoli-gʻarbiga
C) shimoli-sharqiga
D) gʻarbiga

13. Quyidagi rasmda alohida rang bilan belgilangan hududlar qaysi tabiat zonasida joylashgan?



A) Balandlik mintaqalari
B) Savanna va siyrak oʻrmonlar
C) Qattiq bargli doimiy yashil oʻrmonlar va butazorlar
D) Chalachoʻl va choʻllar

14. Quyidagi rasmda harf bilan koʻrsatilgan chiziqlarning qaysilari daryoni ifodalamaydi?




A) A, B, D
B) A, D, C
C) B, D, C
D) C, A, B

15. Samolyot bosh meridiandan ekvator bo‘ylab g‘arbga qarab uchdi va 520 km masofani bosib o‘tdi. U quyidagi rasmda ko‘rsatilgan qaysi zonaga yetganligini aniqlang.

A) D zonaga B) A zonaga C) B zonaga D) C zonaga




16. Quyidagi xarita-sxemada Balear va Ioniya dengizlari qaysi raqamlar bilan ko‘rsatilgan?




A) 8 va 2 B) 1 va 4 C) 3 va 5 D) 3 va 7

17. Quyidagi xarita fragmentida strelkalar bilan ko‘rsatilgan sayohatni amalga oshirgan dengizchi va u o‘rgangan okean nomini aniqlang.




A) V.Bering, Atlantika okeani B) J.Kuk, Tinch okean
C) G.Shelixov, Shimoliy Muz okeani D) A.Chirikov, Tinch okean

18. Baffin Yeri oroli va Labrador yarimoroli oralig'idagi bo'g'iz nomini aniqlang.
A) Elsmir bo'g'izi  B) Deyvis bo'g'izi  C) Gudzon bo'g'izi  D) Labrador bo'g'izi

19. Quyidagilar orasidan Farg'ona tizmasidan boshlanuvchi daryolar to'g'ri berilgan qatorni belgilang.
1) Kosonsoy; 2) Ko'gart; 3) Isfara; 4) Norin; 5) Yassi; 6) Aravansoy; 7) Moylisuv; 8) Qorao'ngur; 9) Oqbura; 10) Chodaksoy.
A) 2, 5, 7, 8  B) 3, 5, 6, 9  C) 1, 4, 6, 8  D) 1, 2, 7, 8

20. Quyidagi xarita-sxemada 1 va 2 raqamlari bilan ko'rsatilgan daryolar oralig'idagi tekislikda aholi zichligi qancha?




A) 100-200 kishi/kv.km  B) 800-1000 kishi/kv.km
C) 545-750 kishi/kv.km  D) 1000-1500 kishi/kv.km

***3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi***

21. Quyidagilar orasidan ham yirik shoxli qoramollar soniga, ham qo'y va echkilar soniga ko'ra respublikamizda bir xil o'rinda turuvchi viloyatlarni ajrating.
1. Andijon; 2. Buxoro; 3. Qoraqalpog'iston; 4. Toshkent; 5. Namangan; 6. Navoiy; 7. Qashqadaryo. 8. Surxondaryo; 9. Jizzax; 10. Sirdaryo; 11. Xorazm; 12. Farg'ona; 13. Samarqand.
A) 8, 12  B) 2, 4  C) 5, 10  D) 7, 9

22. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos tushadigan to'g'ri javobni toping.

| | | | |
|---|---|---|---|
| I | *Mis* | | |
| II | nikel | a) | bronza |
| III | aluminiy | b) | latun |
| IV | qalayi | c) | duraluminiy |
| V | rux | d) | melxior |




A)




B)




C)




D)

23. Tog‘ tizmasi ........... ga yaqin va ................ bo‘lsa, unda balandlik mintaqalari soni shunchalik ko‘p bo‘ladi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.

A) qutblar, qadimgi
B) bosh meridian, tik yonbag‘irli
C) ekvator, baland
D) yonbag‘irlari nishab, shamolga ro‘para

24. O‘rta Osiyo daryolari va ularga qurilgan suv omborlar mos ravishda ko‘rsatilgan javobni belgilang.

| № | Daryolar | | Suv omborlari |
|---|---|---|---|
| 1 | Ili | a | Qayroqqum |
| 2 | Norin | b | To‘xtag‘ul |
| 3 | Zarafshon | c | Qopchig‘ay |
| 4 | Vaxsh | d | Tuyabo‘g‘iz |
| 5 | Sirdaryo | e | Norak |
| 6 | Ohangaron | f | Quyimozor |

A) 1-c, 2-b, 3-f, 4-e, 5-a, 6-d
B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-f
C) 1-c, 2- b, 3-d, 4-e, 5-a, 6-f
D) 1-c, 2-e, 3-f, 4-b, 5-a, 6-d

25. Olmaliq, Angren, Navoiy, Andijon, Farg‘ona, Toshkent kabi shaharlarining havosi qaysi gazlar va zararli birikmalar bilan ifloslangan?

A) uglerod, azod oksidlari, uglevodorod va qattiq birikmalar
B) oltingugurt qo‘sh oksidi, uglerod oksidi, uglevodorod
C) vodorod ftorid, ammiak, azot oksidi, qattiq brikmalar
D) oltingugurt, azot oksidlari, ammiak, vodorod ftorid

26. Quyidagi qaysi rasm Avstraliya materigi (iyul oyida) uchun xos?



A)


B)


C)


D)

27. Quyidagi xarita-sxemada 2 raqami bilan ko‘rsatilgan davlatning hududini relyef jihatdan qaysi daryolar ikkiga ajratadi?




A) Zambezi va Oranj
B) Shari va Limpopo
C) Niger va Benue
D) Senegal va Volta

28. Quyidagi ma’lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan to‘g‘ri javobni toping.
I. AQSH, II. Kanada, III. Braziliya
a) Shahar aholisining ulushi 80% dan yuqori.
b) Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi.
c) Yalpi sanoat mahsulotlarining hajmi bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi.
d) Jahondagi eng baland teleminora joylashgan.
e) Chuchuk suv bilan yaxshi taminlangan davlatlar qatoriga kiradi.
f) Yirik neft, temir, uran, nikel konlari mavjud.
g) Go‘sht ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha jahondagi yetakchi davlatlardan biri.



A)



B)



C)



D)

29. Berilgan ma’lumotlar asosida bir biriga to‘g‘ri keladigan javobni belgilang.

| | Tuproq | | Chirindi miqdori ( % ) |
|---|---|---|---|
| a) | O‘tloq-alluvial | x) | 0,7-1,2 |
| b) | Och bo‘z | y) | 1-1,5 |
| c) | Sur tusli qo‘ng‘ir | z) | 0,2-0,3 |




A) 1, 3, 5
B) 2, 3, 5
C) 2, 3, 4
D) 1, 2, 4

30. Sangzor-Nurota tog‘ oraliq botig‘ini qaysi tog‘lar o‘rab turadi?
A) shimolda Nurota, shimoli-sharqda Morguzar, janubda Janubiy Nurota va Chumqor
B) shimolda Morguzar va Nurota, sharqda Chumqor, janubda Janubiy Nurota
C) shimoli-g‘arbda Nurota, shimoli-sharqda Morguzar, sharqda Chumqor, janubda Janubiy Nurota
D) shimolda Shimoliy Nurota, shimoli-g‘arbda Morguzar, janubda Janubiy Nurota va Chumqor

**10-sinf Geografiya – 21.10.2024**

**KALITLAR:**

***1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi***

1. **C**
2. **A**
3. **D**
4. **B**
5. **C**
6. **B**
7. **C**
8. **A**
9. **D**
10. **B**

***2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi***

11. **D**
12. **B**
13. **D**
14. **A**
15. **B**
16. **C**
17. **D**
18. **C**
19. **A**
20. **B**

***3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi***

21. **C**
22. **A**
23. **C**
24. **A**
25. **D**
26. **B**
27. **C**
28. **A**
29. **B**
30. **A**